

Senga pastkashlar ergashdi



11:08 / 08.12.2019 2673

14

Nuh alayhissalom qavmini, imon keltirib, Allohga ibodat qilishlari va butlarni tark qilishlari uchun ko'p harakat qildi. Lekin qavmidan ba'zilaridan boshqa hech kim Nuh alayhissalomga imon keltirmadi. Unga ba'zi bir qo'l mehnati bilan mashg'ul bo'lgan, halol luqma yeydiganlardan boshqa hech kim imon keltirmadi. Qavmidagi boylarni kekkayishlari, Nuh alayhissalomga itoat qilishdan to'sdi. Ularning mollari va bolalari, oxirat haqida o'ylashdan mashg'ul qilib qo'ydi. Ular: «Biz sharaflı kishilarmiz va mana bular pastkashlardir», deyishdi. Nuh alayhissalom ularni Allohga da'vat qilganida, ular: «Senga pastkashlar ergashib turgan holda, biz senga imon keltirarmidik?!» deyishdi. Nuh alayhissalomdan o'sha bechoralarni haydab yuborishni talab qildilar. Lekin Nuh alayhissalom bosh tortib: «Men mo'minlarni haydab yuborguvchi emasman». Albatta mening eshigim podshohlar eshigi emas, «Men faqat ochiq-oydin ogohlantiruvchiman, xolos», dedilar. Nuh alayhissalom u bechoralar xolis mo'minlar ekanini, agar u miskinlarni haydasalar, Alloh g'azab qilishini va unda, u zotga hech kim yordam bera olmasligini bilardilar. Bas Nuh alayhissalom: «Ey qavmim, agar ularni quvsam, kim menga Alloh (azobidan)dan (qutulishga) yordam beradi?» dedilar.